

Komiljon Rahimov

*O'zbekiston davlat filarmoniyasi
bosh direktorining o'rinbosari
E-mail: rahimovkomiljon67@gmail.com*

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA ZAMONAVIY INNOVATSION MENEJMENT VA BOSHQARUV USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohasida innovatsiyalarni boshqarish bo'yicha global tajribalar, ularning ahamiyati va ushbu tajribalarning innovatsion menejmentga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, madaniyat va san'atda innovatsiyalarni boshqarishning samarali strategiyalari hamda amaliy tajribalari ham tahlil qilinadi. Ushbu tajribalar innovatsion menejmentni rivojlantirisha yordam beradigan asosiy omillar sifatida alohida e'tiborga olinadi. Bundan tashqari maqolada maktab boshqaruvida zamonaviy usullar, innovatsion faoliyat va rahbarlik san'ati muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *madaniyat va san'at, global tajribalar, innovatsion boshqaruv, innovatsion menejment, xorij modellari, innovatsion faoliyat, zamonaviy menejment.*

MODERN INNOVATIVE MANAGEMENT AND GOVERNANCE METHODS IN THE FIELD OF CULTURE AND ARTS

Abstract. *This article analyzes global experiences in managing innovations in the field of culture and arts, their significance, and the impact of these experiences on innovative management practices. It also examines effective strategies and practical approaches to innovation management within the cultural and artistic sphere. These experiences are given special consideration as key factors contributing to the development of innovative management. Furthermore, the article discusses modern methods of school management, innovative activities, and leadership practices.*

Keywords: *culture and arts, global experience, innovative governance, innovation management, foreign models, innovative activity, modern management.*

Madaniyat va san'at sohalari jamiyat taraqqiyoti hamda milliy o'zlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohalarda innovatsiyalarni joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki jamiyatning estetik va intellektual rivojlanishida ham o'z hissasini qo'shadi. Innovatsion boshqaruv bugungi kunda ushbu sohalarda zamonaviy talablarni qondirish va global raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy omiliga aylanmoqda. Madaniyat va san'at sohasida innovatsiyalarni boshqarish zamonaviy dunyoda muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Global tajribalar shuni ko'rsatadiki, texnologiyalarni joriy qilish va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali sohaning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Yurtimiz uchun bu tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish ushbu sohada yangi marralarga erishishda muhim omil bo'la oladi.

Hayotning barcha sohalarida inson resurslarini boshqarishda, yangicha fikrlaydigan, qiyin damlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga ola biladigan, davr bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirish hamda ular tomonidan xodimlarni boshqarishning zamonaviy usullardan foydalanish eng dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.

Ayni paytda mamlakatimizda vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolarni yecha oladigan, avvalo, uni teran anglaydigan, islohotlar jarayonida jonkuyarlik qila oladigan, ma'naviy-axloqiy barkamol shaxslarni boshqaruv bo'g'inlariga ko'proq jalb etish asosiy va bosh masala hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonni jahon miqyosida rivojlantirish, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, har tomonlama zamon talablariga javob beradigan rahbar va yetuk mutaxassislarni tayyorlash alohida o'rin tutadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, shuningdek, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda, madaniyat sohasida ham tub islohotlarni o'tkazishda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3920-son qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qaror ijrosi madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishni ta'minlash, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, shu bilan bir qatorda aholining madaniyat muassasalariga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish kabi bir qancha dolzarb masalalarni ko'zda tutadi [1].

O'zbekistonda menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy tamoyillari XIV–XV asrlarda markazlashgan davlat asoschisi Amir Temur davrida shakllana boshlagan. Buyuk sarkarda "Temur tuzuklari" asarida davlat, qo'shin va boshqalarni boshqarish san'ati to'g'risida o'z qarashlarini bayon etib, izohlab bergan. Menejment fanining nazariy asosini bir necha yuz yillar davomida to'plangan amaliy tajriba natijalari tashkil etib, ular turli xil konsepsiyalar, nazariy g'oyalar, ish prinsiplari va uslublarida o'z ifodasini topdi. Ammo alohida fan sohasi sifatida menejment XIX asrga kelib shakllana boshladi. Boshqarish fanining asoschisi – amerikalik muhandis va tadqiqotchi F.Teylor hisoblanadi. Boshqarish tamoyillarini Teylorning zamondoshi fransuz olimi Anri Fayol ishlab chiqdi. U korxonada amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarni texnika, tijorat, moliya, mol-mulk va shaxslarni qo'riqlash, hisob-kitob, ma'muriy kabi 6-guruhga bo'lib, boshqarishni kiritadi. Menejment yoki boshqarishning obyekti korxona faoliyati, uning subyekti esa boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning xodimlaridir. Menejment bilan maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biladigan malakali mutaxassislar – yollanma boshqaruvchilar, ya'ni menejerlar shug'ullanadilar.

Boshqaruv pog'onasiga qarab menejerlar ham uch toifaga bo'linadi:

1. Yuqori pog'onadagi menejerlar.
2. O'rta pog'onadagi menejerlar.
3. Quyi pog'onadagi menejerlar [2].

Yuqori pog'onadagi menejerlar firma istiqbolini belgilash va uning kelajagi uchun ahamiyatli chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Bir so'z bilan aytganda firma andozasini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi.

O'rta pog'onadagi menejerlar firma faoliyatining ayrim tomonlarini, chunonchi, ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, narx belgilash, moliya faoliyati, yangi tovarlarni o'zlashtirish, texnologiyani qo'llash, mehnatni tashkil etish va shu kabilarni boshqarish bilan shug'ullanadi.

Quyi pog'onadagi menejerlar quyi bo'g'inda, masalan, sex, bo'lim, brigada doirasida ishni tashkil etish, kunlik, haftalik, oylik ish topshiriqlarining bajarilishini boshqarib boradi.

Menejmentning asosiy vazifalaridan yana biri iqtisodiy, ilmiy, psixologik ilmlarning mavjud yutuqlaridan ishlab chiqarishni boshqarishda maqsadga muvofiq foydalanish orqali uning samaradorligini oshirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq qilish va bular asosida mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda aholi farovonligini oshirishdan iboratdir. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqarish obyekti orasidagi o'zaro munosabatdan dalolat beradi.

Menejmentning paydo bo'lishi quyidagi asosiy sharoitlar bilan bog'liq:

1) mashinali ishlab chiqarishni rivojlanishi, boshqaruvchiga talablarning o'sishi, mulk egasi va tadbirkorni boshqaruvning o'sib borishida qiyinchiliklarni bartaraf qilishga qodir emasligi;

2) bozor subyektlarining katta miqdori vujudga kelishi, hajmi o'sishi va bozor aloqalari kuchayishi;

3) boshqaruvga kasbiy yondashuv zarurligini asoslab beruvchi raqobatning o'sishi va bozor iqtisodiyoti barqarorligi;

4) yirik korporatsiyalarning paydo bo'lishi va shunga ko'ra faqat xodimlarning maxsus apparati bajarishi mumkin bo'lgan boshqaruv ishlari hajmi va murakkabligi ko'payishi. Aynan korporatsiyada menejment mulk egasi – tadbirkorning o'zini-o'zi boshqarishidan butunlay ajraladi;

5) mulkning aksiyadorlar o'rtasida jamlanishi natijasida aksiyadorlik sarmoyasini boshqarishning yangi vazifalari paydo bo'ladi;

6) tadbirkorlarning sanoat inqilobi davrida yaratilgan texnikaning afzalliklaridan foydalanishga harakat qilishlari;

7) ijodiy, qiziquvchan odamlar guruhlarining ishni samarali bajarish usullarini yaratish istagi.

Menejment – inglizcha so'z bo'lib, ingliz tilining Oksford lug'atida berilgan ta'rifga binoan u: “boshqaruv hokimiyati va san'ati”, “resurslarni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik va ma'muriy ko'nikmalar” ma'nosini ifodalaydi [3].

Boshqacha so'z bilan aytganda, menejment – bu boshqaruv, ya'ni resurslarni, xususan, odamlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko'paytirish jarayonidir. Shuningdek, barcha ijtimoiy muammolarni, iqtisodni rivojlantirish yo'lidagi hamma qiyinchiliklarni oson hal etish mumkinligi.

Zamonaviy menejmentda vazifalarni hal qilishning turli xil usullari mavjud: boshqaruv vazifalarini hal qilishning haqiqiy usullari, boshqaruv jarayonlarini modellashtirish, qarorlar qabul qilishni axborotli hamda texnik ta'minlanishi va boshqalar. O'zbekistonda nazariy va amaliy statistika, masalalar yechish, muhandislik hisoblashlarning iqtisodiy-matematik modellari yetarlicha yaxshi ishlab chiqilgan. Axborotlarni ishlab chiqish va ularni boshqarish, qarorlar qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish kamroq rivojlangan. Ammo boshqaruv samaradorligi nafaqat vazifalarni hal qilish usullariga, balki ko'proq xo'jalik yuritish mexanizmi va davlat tomonidan tartibga solish tizimiga bog'liqdir.

Global tajribalar atamasi turli sohalarda, jumladan iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish, texnologiyalar va boshqalarda dunyo miqyosida qo'llanilgan yondashuvlar, usullar va amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Bu tajribalar ma'lum bir muammolarni hal qilishda samarali ekanligini isbotlagan va dunyoning turli burchaklarida muvaffaqiyatli qo'llanilgan amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda global tajribalar ta'lim tizimida qanday ahamiyatga ega? Xususan,

Finlyandiya ta'lim tizimi dunyodagi eng muvaffaqiyatli modellardan biri sifatida tan olingan. U o'quvchilarning individual rivojlanishiga e'tibor, oila va maktab hamkorligi, hamda o'quv yuklamasining kamaytirilishi bilan ajralib turadi. Ko'plab davlatlar ushbu tizimni o'rganib, o'z ta'lim siyosatida qo'llashga harakat qilmoqda.

Innovatsiyalarni boshqarish – bu amalda qo'llanilishi mumkin bo'lgan va muayyan ehtiyojlarni qondirishga qodir bo'lgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot yoki texnologiya ko'rinishida mujassamlangan ijodiy faoliyatning yakuniy natijasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, innovatsiya – bu iste'molchilarning ma'lum ehtiyojlarini qondirish uchun amaliy foydalanish maqsadida yangi g'oyalar va bilimlarni amalga oshirish natijasidir.

Innovatsion menejment – innovatsion jarayonlar, innovatsion faoliyat, bu faoliyat bilan band bo'lgan tashkiliy tuzilmalar va ularning xodimlarini boshqarish tamoyillari, usullari va shakllarining majmuasidir.

Menejment har qanday boshqa sohalar kabi quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) rejalashtirish;
- 2) shartlarni belgilash va tashkil qilish;
- 3) ijro etish;
- 4) rahbarlik [4].

Ta'lim tizimida boshqaruvni takomillashtirishdan avval boshqaruv, innovatsion boshqaruv, tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv kategoriyalari bo'yicha ilmiy izlanishlarni o'rganib chiqishimiz va unga o'z yondashuvlarimizni shakllantirishimiz lozim. Hozirgi davrda xorijiy mamlakatlarda boshqaruv, innovatsion boshqaruv, informatsion boshqaruv va boshqaruv mexanizmi iboralari tashkiliy hamda iqtisodiy so'zlari bilan birga qo'llanilib, ko'p hollarda “innovatsion boshqaruv”, “boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi”, yoki “innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari” shaklida qo'llanilmoqda.

Hozirda AQShda, xususan, G'arbiy Yevropada, eng avvalo Fransiya, Germaniyada fan-texnika siyosatining innovatsion siyosatga aylanishi ro'y bermoqda. Uning asosiy vazifasi – ilmiy va texnologik innovatsiyalar, eng avvalo,

kichik va o'rta korxonalar uchun, shuningdek, o'rta va qisqa muddatli dasturlar sohasida eng qulay sharoitlar yaratishdir. AQShda madaniyat va san'at sohasida innovatsiyalarni boshqarish asosan texnologik platformalar orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda Amerika menejmentining eng xarakterli xususiyati nimada?

Birinchidan, menejmentni baynalmilallashtirish, Qo'shma shtatlarning shakllanish tarixi, turli mamlakatlar mutaxassislari menejmenti nazariyasi va amaliyotining birlashtirilishi va bu bilim sohasidagi ularning jamoaviy ijodkorligi bilan bo'g'liq. AQShning zamonaviy ishbilarmon dunyosi hozirgi vaqtda axborotni qo'llab-quvvatlash va axborotni qayta ishlash tizimiga asoslangan, bilimlarning turli sohalari mutaxassislari o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlashga qodir bo'lgan boshqaruvni shakllantirishning uchinchi bosqichiga kirmoqda. Hozirgi vaqtda Amerika korporatsiyalaridagi eng muhim muammolardan biri bu markazlashtirish va markazlashmaslik omillarining optimal muvozanatini aniqlashdir. Umuman olganda, Amerika menejmentining qisqacha tahlilini sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, u menejerning shaxsiyatiga alohida urg'u berishi bilan ajralib turadi, chunki u butun biznes muvaffaqiyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, har bir xodimning tor ixtisoslashuvi va individual javobgarligi, ishlab chiqarish hamda xodimlarni boshqarishning qat'iy va rasmiy tuzilishga ega bo'lishi Amerika menejment modelining asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi.

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanish davrida asosiy o'zgarishlar ta'limning yangi mazmunini shakllantirish, bolalar va o'spirinlar uchun pedagogik texnologiyalar va metodikalar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish sohalarida yuz bermoqda. Ta'limning yangi mazmuni yangi metodologiyalar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini, shuningdek, ilmiy-uslubiy, moliyaviy, normativ-huquqiy qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Ushbu jarayonlar jamiyatda o'z o'rnini topishga intilgan bitiruvchining yangi modelini ishlab chiqish maqsadiga qaratilgandir.

Oliy ta'lim muassasalari innovatsion boshqaruvidagi asosiy masalalardan biri ta'lim dargohiga mos bo'lgan tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmini ishlab chiqib, boshqaruv jarayonida tashkiliy boshqaruv hamda iqtisodiy boshqaruv tushunchalarini bir-biriga muvofiqligini ta'minlab olishdir. Innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tashkiliy va iqtisodiy shakllardagi elementlardan tashkil topgan. Demak, boshqaruvni innovatsion tashkil etishda iqtisodiy hamda tashkiliy tushdagi elementlarni shakllantirish lozim hamda ularni quyidagi vazifalarini hal etish maqsadga muvofiq:

- 1) innovatsion boshqaruv mexanizmining maqsadlari;
- 2) innovatsion boshqaruv mexanizmining vazifalari belgilash;
- 3) innovatsion boshqaruv mexanizmining tamoyillarini aniqlash;
- 4) boshqaruv mexanizmining ishlash shartlari va omillarini aniqlash;
- 5) innovatsion boshqaruvda ishtirokchilarini aniqlash;
- 6) innovatsion boshqaruv usullari, uslublari va vositalarini ishlab chiqish;
- 7) boshqaruv samaradorligini aniqlash;
- 8) innovatsion boshqaruv davomiyligini ta'minlash;
- 9) boshqaruv natijalariga asosan monitoring qilish tizimini ishlab chiqish;
- 10) innovatsion boshqaruvga doir strategiyani belgilash va boshqalardan iborat [5].

Innovatsion menejmentning ustuvor maqsadlari innovatsion faoliyatni faollashtirish asosida tashkilotni o'sishi va rivojlanishi, yangi tovarlar va yangi texnologiyalarni bozor tomoniga faol harakatlantirish, iqtisodiy taraqqiy etish va yangi bozorlarga bostirib kirishni faol o'sishi uchun ishlab chiqarishni yanada ixtisoslashtirish va har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanishdan iboratdir.

Innovatsion boshqaruv g'oyatda murakkabdir. Innovatsion jarayonlarning rivojlanishi qonuniyatlarini tahlil qilish uchun innovatsion menejerlar bo'lgan mutaxassislar zarur, ular yangilik kiritishlarning har xil tashkiliy iqtisodiy jihatlari

bilan shug'ullanadilar. Ularning innovatsiyalarni boshqarishdagi asosiy vazifasi – innovatsion jarayonni ilgari surish, ehtimol bo'lgan to'siqlarni bartaraf qilishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, menejmentda innovatsiya jarayonlarini boshqarish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish, ilmiy-texnik ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ilmiy imkoniyatlarini ochish, xorij texnologiyasini keltirish, raqobatbardoshlik yo'nalishlarini aniqlash va boshqa masalalarni hal etishga qaratilgan. Bugungi kunda boshqaruvning bozor munosabatlariga o'tishi amalga oshirilmoqda, boshqaruvning ixtisoslashuv chuqurlashuvi va korporatsiya bo'yicha aloqalar barqaror bo'lishini ta'minlovchi yangi bir qancha tashkiliy tizimlar vujudga kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ – 3920-son qarori.*
2. *Ziyavitdinova N., O'rinov Y., Xayitov Sh. Menejment. – Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. –312 b.*
3. *Yo'ldashev K., Zaxidov G. Menejment. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. –312 b.*
4. *Xo'djamuratova G., Azlarova M. Menejment. Marketing. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 359 b.*
5. *Yo'ldoshev N., Mirshaidova Sh., Goldman Y. Innovatsion menejment. – Toshkent: 2011. – 314 b.*